

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALARLARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

HUMOYUNSIFAT MA’RIFATPARVAR HAQIDA XOTIRALAR

Nilufar Namazova

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi

Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo‘ja Behbudiylar haqida 1919–1926-yillari zamondoshlari tomonidan bir qancha xotiralar matbuot sahifalarida chop etildi. Mana shu maqolalar tufayli biz uning shaxsi, faoliyati haqida ancha keng ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Jumladan, Behbudiylar ajdodlari haqida Hoji Muin va Sadriddin Ayniy maqolalarida bayon etilgan.

Hoji Muin “Mahmudxo‘ja Behbudiylar” maqolasida Behbudiylar “Nasab jihatidan turkistonlik Xo‘ja Ahmad Yassaviyga borib yetadi. Behbudiyning ikkinchi bobosi Niyozxo‘ja o‘zi modarzod ko‘r (so‘qur) bo‘lub, yoshlig‘ida Qur’onni yodlab qori bo‘ldi. Bu zot Urganjdan bo‘lub, taqriban bir asr ilgari Samarqandg‘a kelib, shunda o‘runlashib qolg‘on” [1], deb yozadi.

Sadriddin Ayniyning yozishicha, “Mahmudxo‘janing otasi Behbudo‘ja oila egasi va faqir xatib bo‘ldig‘i sababli Mahmudxo‘ja o‘z maishatini ta’min qilmoqqa majbur bo‘lur. Muning uchun Samarqand uezdi Kobut volostining qozixonasiga kotiblik sifati ila kirgan, Bir necha fursat kotiblik vazifasida sabot bilan davomat qilib, qozixonalarg‘a voqe’ bo‘ladigan ishlarg‘a mahorat paydo qilgan. So‘ngra mazkur vulustning tahriri masoil va funun ishlari muhdasig‘a havola qilinub, 1901-yilg‘acha qadar bu xizmatda davom etgan” [2].

Behbudiylar 1899-yili haj safariga boradi. Buni Ayniy: “Mahmudxo‘ja Hijoz safaridan so‘ngra go‘yo dunyog‘a yangi kelgandek bo‘lub, Turkistonning ilmiy va ijtimoiy ishlarg‘a boshqa bir o‘lchak bilan qarag‘on”, deb alohida ta’kidlaydi. Ayniy Behbudiyning boshqa sayohatlari haqida ham ma’lumot beradi: “1907-milodiyda Russiyaga safar qilub, islom mutafakkirlari bilan ko‘rishib va islom olamining, biltossal, Turkistonning hamla va asoratdan taxallusi uchun xayolotlar beraturgon fikrlar olishgan.

1907 nchi yilda Farg‘onani sayohat qilib xalqqa fikr bergan. Buxoro, Farg‘ona va Turkistonning boshqa yoqlarinda sayohat qilib xalqqa fikr va ruh bergan.

1914 nchi yil jahon muhorabasi arafasinda takror Istanbul, Adrina, Suriya va Misrni sayohat qilg‘on... Mahmudxo‘ja xalqni ruscha o‘qishga tashviq qilmoq uchun ba’zan ta’til zamoninda o‘g‘lini maktab furmasi ostinda birga olib, Turkistonning har tarafiga sayohat qilar edi”.

Abdulhamid Azamat “Behbudiylar haqida xotiralarim” maqolasida esa uning maorif sohasidagi faoliyatini eslab o‘tadi. “Samarqand yoshlari o‘rtasida Beg‘budiyni bilmagan odam yo‘qdur. Mustabid hukumatning qattiq nazorati, marhamatsiz taftishlari hukm

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

surgan bir vaqtida ul eski shahardagi o‘z havlisini muallim Abdulqodir afandi Shakuriyning usuli jadida mакtabiga borib, o‘z himoyati ostida uni bir necha yil yashatdi. Samarqandda yetishgan yoshlarning barchasi deyarlik mazkur maktabdan istifoda etib ilm va maorifdan bahra oldilar. Qora idorannig 1906-yilgi zulmi zamonida maktabga o‘rus mufattishlari kelib kirgan chog‘da jug‘rofiya, ta’rix, hisob kitoblarni otxonalarning oxuri tagida yashirub yurgan vaqttagi azob va ma’suliyatlar Abduqodir afandi bilan barobar, albatta, Behbudiyning ustig‘a xam tushg‘ondir...

Maktabning yilliq imtihon vaqtlarida bu muhtaram otaning yuzida shodlik va ruhlik alomatlari ko‘rinar edi. Kelgusi kunlarning turmushini gullantiruvchi umidlarning bu daf'a tag‘in bir qadam ilgari bosqonin o‘z ko‘zi oldida xalqqa ko‘rgazganiga suyinar va shodlanar, uning bilan birlashib, bu vaqtida o‘qitg‘uvchilar xam o‘qug‘uvchilar ulug‘ bayram etar edi” [3], deydi.

Zamondoshlari Behbudiy ochgan kutabxonani alohida tilga olishadi. Sadriddin Ayniy bu haqda shunday yozadi: “Mahmudxo‘ja hazratlarining xidmatlarindan birisi “Samarqand” kutubxonasıdir. Ma’lumdirki, Nikolay davrida kutubxona ochmoq gazeta nashr qilmoqdan ham qiyinroq edi. Shuning uchun Nikolay taxtdan tushgancha Toshkand va Xo‘jand kabi shaharlarda mutolaaxona misr bo‘lmadi. Lekin Mahmudxo‘janing sabotkorona g‘ayrati bilan 1908 nchi yil may oyinda mutolaaxona jamiyatining nizomnomasi tasdiq qilinub, sentyabr oyinda rasman ochildi. Kutubxonada har bir turli kitoblardan boshqa Rossiya, Istanbul va Misr matbuoti kelturildi. Kutubxona 1919 nchi yilgacha xalq ionasi bilan davom qilib, mazkur sanadan maorif sho‘basining qo‘lig‘a o‘tdi”.

Abdulhamid Azamat esa yuqorida tilga olingan maqolasida “Ko‘b yugurib qancha qiyinliqlar bilan eski shahar o‘rtasida vujudga keltirgan qiroatxona va kutubxonani modliy va ma’naviy yoqlarini mumkin qadar ta’min etib yopturmasdan yashatib keldi. Har kun deyarlik bir martaba kirib uning borishi haqinda so‘rashib, mutolaachilarning hisobini bilishib chiqish uning odati edi”, deydi.

Sadriddin Ayniy Behbudiyning farzandlari haqida quyidagi ma’lumotlarni beradi: “Mahmudxo‘jadan uch ug‘il, bir qiz, jam‘i to‘rt xalq qoldi. O‘g‘lining kattasi Ma’suduja 22 yashar. Oila egasi bo‘lib, musulmoncha ibridoiy maktabni, ruscha ikki sinf gimnaziya bilan to‘rt sinf shahar maktabini bitkuzgandir.

Ikkinci o‘g‘li Maqsudxo‘ja 12 yashar, uchinchisi Matlubxo‘ja 8 yashar bo‘lib, musulmoncha ibridoiy maktabni davom qilmoqdalar. Muning ustig‘a Samarkandg‘a butun yosh fikrlilar Mahmudxo‘ja Behbudiy xazratlarining ma’naviy o‘g‘illaridir”.

Hoji Muinning “Ulug‘ ustozimiz Behbudiy afandi” maqolasidan Behbudiyning insoniy fazilatlari haqida ma’lumot olish mumkin. Hoji Muin bu haqda shunday yozadi:

“MAHMUDXO‘JA BEHBUDIY PUBLITSISTIKASI VA JADID MATBUOTIDA IJTIMOIY-SIYOSIY MASALAR LARNING YORITILISHI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“Behbudiy afandi halim, ziyrak, g‘oyat zakovatli va quvvai hofizasi zo‘r bo‘ldig‘idek, so‘zga-da nihoyat darajada usta edi. Ul har so‘zig‘a qanoatlantirmak uchun turli misollar keltura, mavqeyi kelganda oyat va hadisdan dalillar ko‘rsata edi. Behbudiy afandi har vaqt... masohiblarining holig‘a va aqlig‘a qarab o‘shanga munosib so‘ylasha edi. Ba’zan mutoyiba ila majlisdoshlarini kuldura edi. Oning suhbatinda bo‘lg‘on kishi ruhlana, shodlana va oning oldindan aslo turg‘usi kelmas edi. Behbudiy afandi aksar vaqt maqolalarinda yozib turdig‘idek, suhbat va majlislarda ham “Bizga ikki turli kishi kerak. Biri diniy ilmlarni falsafalari ila komil bilaturg‘on zotlar, ikkinchisi dunyoviy ilm ila hunarlarni yaxshi bilgan ziyorolar” so‘zlarini so‘zlab tura edi...

Behbudiy afandi shaxsiy dushmanliqni xohlamas va hech kimning shaxsig‘a va shahsiy ishlarig‘a til yetkuzmas edi. O‘shandoq o‘zini takfir va tahqir etaturg‘on xasmlarig‘a-da qarshi yomon va haqorotomiz so‘zlar so‘ylamas edi. Balki shunday so‘zlarni eshitganda: “Zotan munday din va dunyodan xabarsiz kishilardan yaxshi so‘zlar kutmak-da abasdur”, deb kular edi. “Munday takfirlarni yolg‘uz men ko‘rgan emas, balki o‘tgan ulamo va ulug‘ kishilar ham o‘z maosirlaridan shunday hujum va takfirlarni ko‘rib kelganlar”, deb o‘zig‘a tasalli bera edi. Behbudiy afandida yana bir xosiyat bor ediki, xasm va dushmanlari oning ketida har qancha g‘iybat va haqorat etishsalar-da, oning huzurig‘a o‘turg‘onda hech bir behuda so‘z ayta olmasdan onga tamliq va madora etarg‘a majbur bo‘lalar edi. Behbudiy afandi har vaqt o‘zining shaxsig‘a tegib so‘ylayturg‘on xasmlarig‘a: “Ajabo, bular na uchun mening shaxsimg‘a til yetkuzalar? Men o‘zim yaxshimi, yomonmi, har na bo‘lsa-da, millatimg‘a zarar yetkizmayman, balki xalqg‘a qavla va foyda yetkuzmak uchun qo‘limdan kelgancha cholishaman”[4], deya edi.

Sayidahmad Vasliy esa Behbudiya “Mahmudxo‘ja birodarim millati islomianing taoliy va taraqqiysi uchun eng birinchi daraja cholishaturg‘on bir humoyunsifat erdi”, deb ta’rif beradi.

Xullas, bu kabi maqolalarda biz Mahmudxo‘ja Behbudiy kim edi, u nimalarni orzu qilgan edi, qanday sifatlarga ega inson edi, degan savollarga javob olamiz. Bu ulug‘ ma’rifatparvar bobomizni zamondoshlari qanchalik hurmat va ehtirom etganidan dalolat beradi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Uchqun jurnali, 1923. 1-son
2. Sadriddin Ayniy. Mehnatkashlar tovushi 1920, 8-aprel.
3. “Zarafshon”, 1923-yil 25-mart.
4. Hoji Muin. “Mehnatkashlar tovushi”, 1920-yil 8-aprel.